

**ANDIJON VILOYATI HUDUDIDA GO'DAKLAR O'LIMI
SABABLARI VA OMILLARI**

ADU

Geografiya yo'nalishi magistranti

Siddiqova Malohat Shokirjon qizi

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 4,3 ming kv. km. Chegara uzunligi 617,1 km. Andijon viloyati Farg'ona viloyati bilan (101,2 km), Namangan viloyati bilan (106,6 km), Qirg'iziston Respublikasi bilan (409,3 km) chegaradosh. Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 757 kishiga to'g'ri keladi. Ma'muriy markazi – Andijon shahri bo'lib, aholisi 458,5 ming kishi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil 1- yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 253,5 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 65,4 ming kishiga yoki 2,1 % ga o'sdi. Shu bilan birga, shahar aholisi soni 1 699,2 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 52,2 %), qishloq aholisi soni 1 554,3 ming kishini (47,8 %) tashkil etadi. Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra Andijon viloyatidagi demografik holat (2022- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumot)

O'lganlar soni 16 409 kishi

Nikohlar soni 26 750 birlik

Nikohdan ajralishlar soni 3 929 birlik

Ko'chib kelganlar soni 6 965 kishi shundan, xorijdan 16 kishi

Ko'chib ketganlar soni 9 796 kishi shundan, xorijga 313 kishi

Tug'ilish. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 84 637 kishini tashkil qildi va 2020-yilning shu davriga (81 425 kishi) nisbatan 3 212 taga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 26,3 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan 0,5 promillega ortdi.



Tug'ilganlar sonining jinsi va tug'ilgan joyi bo'yicha taqsimlanishi

2021- yil yanvar – dekabr holatiga, kishi

	<i>Jami</i>	<i>jinsi bo'yicha</i>		<i>joyi bo'yicha</i>	
		<i>o'gil bolalar</i>	<i>qiz bolalar</i>	<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
Viloyat bo'yicha:	84 637	43 567	41 070	44 160	40 477

<i>shaharlar:</i>					
Andijon sh.	12 185	6 302	5 883	12 185	0
Xonobod sh.	945	497	448	945	0
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko'l	5 003	2 542	2 461	2 618	2 385
Andijon	7 595	3 927	3 668	5 980	1 615
Baliqchi	5 173	2 666	2 507	1 393	3 780
Bo'ston	1 978	1 010	968	851	1 127
Buloqboshi	3 299	1 712	1 587	1 304	1 995
Jalaquduq	4 638	2 424	2 214	1 917	2 721
Izboskan	6 389	3 292	3 097	1 822	4 567
Ulug'nor	1 718	870	848	279	1 439
Qo'rg'ontep'a	5 130	2 590	2 540	2 077	3 053
Asaka	9 406	4 834	4 572	3 605	5 801
Marhamat	4 721	2 482	2 239	3 341	1 380
Shahrixon	8 240	4 284	3 956	2 616	5 624
Paxtaobod	5 308	2 625	2 683	1 935	3 373
Xo'jaobod	2 909	1 510	1 399	1 292	1 617

2021- yil yanvar – dekabr davrida tirik tug'ilganlar sonidan o'g'il bolalar soni **43 567** nafarni yoki jamidan **50,5** foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni **41 070** nafar va jamidan **49,5** foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug'ilganlar soni **44 160** nafarni (jamidan **52,2 %**) tashkil etdi, qishloq joylarda tug'ilganlar soni esa **40 477** nafarni (jamidan **47,8 %**) tashkil etdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Andijon viloyatida kesimida chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichlari geografik va demokrafik jihatdan o'rganilib tahlil etildi. Mavzuni yoritish davomida viloyatda chaqaloqlar o'limini yuzaga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kelish sabablari va uni kamaytirish omillari o‘rganilganda ayrim muammolar aniqlandi. Jumladan;

- viloyatda ayrim yoshlarning erta turmush qurish holatlari kuzatilmogda. Bu esa o‘z navbatida sog‘lom oila shakllantirishda o‘ziga xos salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.
- farzand ko’rish orasidagi davri bir yilga yetmasdan kuzatilgan tug‘ilishlar ham uchrashligi, sog‘lom farzand, sog‘lom avlod tarbiyalashga salbiy ta’sir etadi.
- Viloyatda kuzatilayotgan chaqaloqlar o‘limining asosiy sabablari onaning homila davridagi orttirgan kasalligi natijasida sodir bo’lmoqda.

Ilmiy ishning maqsadi: 2021- yil yanvar – dekabr davrida tirik tug‘ilganlar sonidan o‘g‘il bolalar soni 43 567 nafarni yoki jamidan 50,5 foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni 41 070 nafar va jamidan 49,5 foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug‘ilganlar soni 44 160 nafarni (jamidan 52,2 %) tashkil etdi, qishloq joylarda tug‘ilganlar soni esa 40 477 nafarni (jamidan 47,8 %) tashkil etdi. Ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi:

- Chaqaloqlar o‘limini xisoblash metodlarining nazariy masalalarini o‘rganish;
- O’zbekistonda chaqaloqlar o‘limi sur’atini o‘rganish va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritish;
- Andijon viloyatida chaqaloqlar o‘limi koeffisentini aniqlash va o‘lim sabablarini tahlil qilish;
- Viloyatda go’daklar o‘limini koeffisentlarini hududiy tafovutlarini aniqlash;
- Chaqaloqlar o‘limi koeffisentini kamaytirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Quyidagi jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Andijon viloyati shahar va tumanlari kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish koeffitsienti tahliliga nazar solamiz.


Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Tug'ilish. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni **84 637** kishini tashkil qildi va 2020-yilning shu davriga (**81 425** kishi) nisbatan **3 212** taga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti **26,3** promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan **0,5** promillega ortdi.




Viloyat bo'yicha tirik tug'ilganlar soni hamda koeffitsiyenti
2021- yil yanvar – dekabr davri uchun (1000 aholiga nisbatan, promille)

Tirik tug'ilganlar soni, kishi



Tug'ilish koeffitsiyenti
(1000 aholiga nisbatan, promille)



Chaqaloqlar o'limi deganda, bir yoshgacha bo'lgan (ya'ni, 0 oydan 12 oygacha) bolalar o'limi tushuniladi. **Bolalar o'limi** deganda 1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan aholi guruhining o'limi tushuniladi.

Viloyatda aholi o'rtaida sog'lom bola tug'ilishi va ularni tarbiyalash,yoshlarda sog'lom va ahil oila qurishga, sog'lom turmush tarzini olib borish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Onalik va bolalikni muhofaza qilishda tibbiy xizmatni yaxshi yo'lga qo'yib borilayotganligi bois, viloyatda tug'ish davrida ayollar o'lim ko'rsatkichi keying o'n yil davomida pasayib borganini kuzatish mumkin

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida demografik – statistik

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

guruhash, taqqoslash, bashoratlash uslublari qo'llanildi. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlardan, Andijon viloyati statistika boshqarmasi, Andijon viloyati sog'lijni saqlash markazi ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Chaqaloqlar o'limini kasalliklar turi bo'yicha tahlilida nafas a'zolari kasalliklari bilan 46,1 %, perinatal davr kasalliklari bilan 37,1 %, tug'ma nuqsonlar bilan 13,3 %, infekcion kasalliklar bilan 2,3 %, boshqa kasalliklar bilan 1,2 % holatlarda kuzatilgan. Barcha kuzatilgan bolalar o'lim holatlari bo'yicha joylarda tahlillar o'tkazildi.

Ko'rinib turibdiki, chaqaloqlar o'limini yuzaga keltirayotgan kasalliklar asosan nafas a'zolari kasalliklari va perinatal davr, ya'ni homiladorlikning dastlabki 28 haftasidan tug'ruqning 7 kunigacha bo'lgan davr oralig'ida orttirilgan kasalliklar hisoblanmoqda. Bu esa onalarni homiladorlik davrida tibbiy nazoratni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar: Sog'lom va barkamol shaxslarni shakllantirish hamda voyaga yetkazish davlatimiz islohotining bosh vazifalaridir biri bo'lib turibdi. Sog'lom onadan sog'lom farzand dunyoga keladi deydi dono xalqimiz. Shunday ekan jamiyatimizda, yoshlar o'rtasida odob-axloq, oilaning muqaddas ekanligi haqidagi targ'ibot ishlarini olib borishimiz darkor. Shahar joylari:

Tibbiy xizmatlar: Shahar hududlarida sog'lijni saqlash muassasalari ko'p, shifokorlar malakali. Bu joylarda emlash va profilaktika dasturlari yaxshiroq amalga oshiriladi.

Oziqlanish: Shahar aholisi oziq-ovqat mahsulotlariga erkin kirish imkoniyatiga ega, bu go'daklar salomatligini yaxshilaydi.

Qishloq joylari:

Tibbiy xizmatlarning yetishmasligi: Qishloqlarda tibbiy muassasalar kam, shifokorlar soni cheklangan, bu esa muammolarni vaqtida hal qilish imkoniyatini kamaytiradi.

Oziqlanish muammolari: Oziq-ovqat yetishmovchiligi va kam sifati go'daklar o'limini oshiradi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy Sharoitlar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Daromad darajasi: Qishloq aholisi ko'pincha kam daromadli, bu oziqlanish va tibbiy yordamga erishishni qiyinlashtiradi.

Ta'lim: Ta'lim darajasi past bo'lgan joylarda onalar bolalarining parvarishi va sog'ligiga kam e'tibor berishlari mumkin.

3. Madaniy Qadriyatlar

Mahalliy urf-odatlar va an'analar go'daklar parvarishiga ta'sir qiladi. Qishloqlarda ba'zi an'anaviy qarashlar tibbiy yordam olishda to'siq bo'lishi mumkin.

4. Infratuzilma

Transport: Qishloq joylarida transport muammolari tibbiy yordamga kirishni qiyinlashtiradi. Shahar hududlarida esa transport tarmog'i rivojlangan.

5. Oziqlanish

Oziq-ovqat ta'minoti va sifatining farqi go'daklarning sog'ligiga bevosita ta'sir qiladi. Qishloqlarda ko'proq oziq-ovqat muammolari mavjud.

Xulosa

Andijon viloyatidagi go'daklar o'limining dinamikasi geografik jihatdan jiddiy farqlarni ko'rsatadi. Shahar va qishloq o'rta sidagi farqlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va madaniy omillarni inobatga olish, go'daklar o'limini kamaytirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. 1. Soliev A., Mahamadaliev R. Iqtisodiy geografiya asoslari. -T., 1995
2. <http://data.worldbank.org>
3. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Toshkent, 1999
4. Abdullaeva R., Ata-Mirzaev O., N Umarova: "O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi band ligi". T. "Unvesitet" 2006
5. Bo`riyeva M.R. O`zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997